

SHARQ FALSAFIY TAFAKKURIDA KOMIL INSON TAVSIFI**Xodjayeva D.Yu.,**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti "Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrası dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Доцент, кандидат философских наук, кафедра «Основы духовности и правового воспитания» Национального педагогического университета им. Низами в Узбекистане.

Associate Professor, Candidate of Philosophy, Department of "Fundamentals of Spirituality and Legal Education" of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

Annotatsiya: *Maqolada komil inson g'oyasi va uning Forobiy, Ibn Sino, Rumi va Navoiy singari o'rta asr Sharq allomalari merosida yuksak darajada aks etganligi hamda ularni bugungi kunda jaholatga qarshi kurashda asos ekanligi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *komillik, kamolot, komil inson, barkamol avlod, ta'lim, tarbiya, ma'naviy-axloqiy sifatlar, ma'naviy kamolot, axloqiy poklik, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik.*

Abstract: *The article discusses the idea of a perfect person and its high reflection in the heritage of medieval Eastern scholars such as Al-Farabi, Ibn Sina, Rumi and Navoi, and their use as a basis for the fight against ignorance today.*

Keywords: *perfection, perfection, perfect person, harmonious generation, education, upbringing, spiritual and moral qualities, spiritual perfection, moral purity, humanity, patriotism, nationalism.*

Kirish. Mamlakatimizda inson va uning qadr-qimmati, fuqarolarning manfaati va huquqini himoya qilish, unga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy yuksalishi va barkamol inson shaxsini tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki buyuk kelajak ma'naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi, qad ko'taradi, ya'ni ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar.

Ma'lumki, xalqimizga azaldan kattalar va ota-onalarni hurmat qilish, o'z Vataniga mehr-muhabbat, boshqa millat va elatlarga xayrixohlik ko'rsatish, ochiqko'ngillilik, o'zgalarning g'amiga, qayg'u-tashvishiga sherik bo'lish, o'zaro yordam, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik va boshqa insonparvarlik qadriyatlari xos bo'lib kelgan. Ayniqsa,

diyorimizdan yetishib chiqqan alloma va mutafakkirlar, faylasuf va donishmaëndlarning biz uchun ibrat bo'lishga arziydigan gumanistik qarashlari, an'analari hozirgi kunda ham yosh avlodni insonparvar shaxs qilib tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'z davrida komil inson to'g'risida mukammal ta'limot yaratgan allomalardan biri Abu Nasr Forobiy insonni barcha mavjudotlardan farq qilgan holda uni "madaniy ijtimoiy hayvon" deb tushunib, insonning ijtimoiy tabiati, insonlarning o'zaro munosabati jarayonida vujudga keluvchi xislatlari haqidagi farazni olg'a surdi.

Forobiyning ta'kidlashicha, kishilar faqatgina moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, yetuklikka erishish uchun jamoaga birlashadilar. Chunki bir kishi o'z ehtiyojlarini, turli talablarini qondira olishi mutlaqo mumkin emas, buning uchun u o'zgalarning yordamiga muhtojdir. Ana shu o'zaro yordam tufayli ehtiyoj qondiriladi. Bu haqda alloma o'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida" risolasida shunday yozadi: "kamolotga bir kishining o'zi yolg'iz erishuvi mumkin emas. Har bir insonning tug'ma tabiatida va unga lozim bo'lgan har qanday ish va harakat jarayonida boshqa bir inson yoki ko'pchilik bilan munosabatda bo'lish, o'zaro aloqa qilish hissiyoti bor, odamzot jinsidan bo'lgan har qanday insonning ahvoli shu: u har qanday kamolotga erishuvda boshqalarning ko'maklashuviga va ular bilan birlashishiga muhtoj yoki majburdir" [1].

Komil inson, Forobiyning nazarida, bilimdon, aqlli, zukko, odil, sofdil, kamtar, xushfe'l, jamiyat manfaatini ko'zlovchi, odamlar to'g'risida g'amxo'rlik qiluvchi, haqiqatni sevuvchi, g'ururli va boshqa fazilatlar sohibi bo'lishi lozim. U komil insonning fazilatli ishlari ilmga asoslanadi, deydi. Ammo inson o'z ilmini amaliy jihatdan tatbiq etish vositalariga ega bo'la olmasa, unda bu hol komillik hisoblanmaydi. "Insonning komilligi uning bajargan amaliy ishlarida ifodalanadi. Masalan, kotibning kamoloti yozish san'atini o'zlashtirganligidagina emas, balki o'z kasbiga doir vazifalarni mohirona bajarishidadir. Xuddi shuningdek, shifokorning kamoloti ham uning tibbiyot san'atiga doir bilimga ega bo'lishida emas, balki xastalikni davolashning amaliy vositalarini mukammal bilishidan iboratdir. Bu hol har qanday boshqa san'at sohiblariga ham taalluqli" [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bashariyatning ulug' mutafakkirlaridan biri Abu Ali ibn Sinoning insonparvarlik qarashlari esa uning inson sog'lig'i, sihat-salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi odamning umrini turli davolash usullarini qo'llab uzaytirishi, davlatni oqilona boshqarish va hukmdorning o'z qo'l ostidagilarga adolatli va rahmdil bo'lishi, inson va uning fazilatlarini yuksaklikka ko'tarish, ta'lim-tarbiya, axloq va xulq-odob haqida aytgan fikrlarida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino talqinida, yaxshilik keng ma'noni anglatuvchi axloqiy tushunchadir. Yaxshilik faollikka, yomonlik esa sustkashlikka kiradi. Dunyoda nimaiki mavjud bo'lsa, o'z tabiatiga ko'ra, kamolotga intiladi. Mana shu kamolot yaxshilikdir. Ashyolarga xos bo'lgan

nuqsonlar yomonlikdir. Yomonlik predmetlarning mohiyatida bo'lganda uni ichki rivojlantirishdan to'xtatib qo'yadi, hodisalarga xos bo'lsa, umumiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi.

Ibn Sino bolaning kamolotga yetishida, uni sog'-salomat o'sishida tibbiyotning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlash bilan birga jismoniy tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, agar badan tarbiyasi to'g'ri olib borilsa, u kishi tanasiga yengillik beradi, unda tug'ma issiqlikni oshiradi: “badan tarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvchi ixtiyoriy harakatdir. Mo'tadil ravishda va o'z vaqtida badantarbiya bilan shug'ullanuvchi odam buzilgan xiltlar tufayli kelgan kasalliklarning va mijoz hamda ilgari o'tgan kasalliklar tufayli keluvchi kasalliklarning davosiga muhtoj bo'lmaydi” [3].

Mavlaviya tariqatining asoschisi Jaloliddin Rumiy komillik, kamolot, komil inson haqida qimmatli fikrlarni ilgari surgan. U o'zining mashhur “Masnaviyi ma'naviy” asarida komil insonni madh etar ekan, shunday yozadi:

Shu baland ko'k ostida har neki bor,
Odamiy, jonsiz jism yo jonivor.
Bilmas o'zga dardini, g'ofil erur,
O'zgalarning dardini komil bilur [4].

Bu baytlarda komil inson o'zgalar dardini bilguvchi, unga malham bo'lguvchi, yordam qo'lini cho'zuvchi, insonga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi zotdir, deyilmoqda.

Jaloliddin Rumiy “Masnaviyi ma'naviy”ning boshidan oxirigacha insonni komillik darajasiga ko'targan ichki (botiniy) ma'naviy ishqni tasvirlar ekan, komil inson faqat yaxshilik izlaydi, “qo'lga tuproq olsa komil, zar bo'lur”, “kufr etsa komil ul, millat bo'lur” [5], deydi. Uningcha, “komil inson – ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayz-u karomatdan serob, siyrat-u surati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmolim pokiza zot”dir [6].

Oqil, komil inson narsa va hodisalarning asl mohiyatini tezda anglaydi va hamisha yaxshilik tarafdori bo'ladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy belgisi bu insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, insonparvarlik g'oyalariga munosabati va ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi, ya'ni jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat sivilizatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan komillik mezoni shaxsning barkamolligi orqali jamiyatni farovon qilishdan iborat bo'lgan. “Masnaviyi ma'naviy”da bu borada shunday bayt keltiriladi:

Notiqi komil ulumga bosh bo'lar,
Sufra yozsa, turfa-turfa osh bo'lar [7].

Buyuk alloma Rumiy baytda sufrani misol keltirib, sufra yozish orqali turli-tuman taomlar pishiriladi, komil insonning ham aytgan fikr va qarashlaridan insonlar to'g'ri

yo'lni tanlaydilar va ular tomonidan turli-tuman ijobiy fazilatlar namoyon bo'ladi, deyilmoqda. "Inson fikr va tushunchadan tashkil topgan, qolgani suyak va asabdir" [8]. Demak, insondagi komillik, eng avvalo, uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashidadir.

Tahlil va natijalar. Jaloliddin Rumiylar insonga murojaat qilib, odamiy sifatga ega komil insonlarni izla, ular bilan hamsuhbat bo'l, ulardan hamisha ilm talabida bo'l, deydi. Hozirgi taraqqiyot davrida komil inson deganda, har jihatdan yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, yuksak ma'naviyatli shaxs tushuniladi. Shunday ekan, har bir shaxs ustozlar o'gitiga quloq tutib, jamiyat ravnaqi va uning taraqqiyoti uchun tinmasdan o'qishi, izlanishi kerak. "Masnaviyi ma'naviy"da yana komil insonga nisbat berilar ekan, oqil, dono, fozil iboralari ham ishlatiladi:

Aql-u imon mirshabi oqil erur,

Ki, ko'ngil shahriga ul hokim erur [9].

Oqil kishiga aql va imon hamroh va sohibdir, chunki u inson ko'nglidagi kechinmalardan voqif, uning kechinmalarini tushunadigan shaxs sanaladi. Rumiylar oqil, komil insonlarni tarannum etar ekan, ularni hurmat qilamiz va ularga ergashamiz, ular bilan qalbimizni bog'laymiz, deydi. Buyuk alloma oqil, dono, fozil kishilar deganda, birinchi navbatda payg'ambarlar, sahobalar, avliyolar, so'fiylar, shayxlar, pirlar, ustozlarni nazarda tutadi.

Rumiyning fikricha, komillik aqlga tayanadi. Komil inson narsa va hodisalarning mohiyatini bebashorat anglaydi va masala yechimini tezda topib, mohiyatini ochib beradi. "Masnaviyi ma'naviy"da shunday deyiladi:

Odam – usturlobi vasfi zotidir,

Vasfi odam – mazhari oyotidir [10].

Mazkur baytning mazmuni shunday, ya'ni inson yuksak sifatlar usturlobidir. Haqning oyatlari, dalillari mazharidir. Komil inson saxiylik, saxovat, bag'rikenglik, ochiqko'ngillilik, ya'ni yaxshi xulq va xislatlar sohibi hisoblanadi, chunki ularning ko'ngil ko'zi tarbiyalangandir. Komil insonning mohiyati, avvalo, jamiyatni barkamol qilish yo'lidagi sa'y-harakatlarda namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, Rumiylar inson o'z mohiyatini anglashi borasida shunday kuyinib so'zlaydi va insonning tanasi ruhni boshqarmasin, ruhi va qalbi tanani boshqarsin, deydi. Ot – inson tanasi, suvoriy – inson o'zligi, yemish – ta'lim-tarbiya. O'zligini anglagan insongina ruhini ma'naviyat, tanasini madaniyat orqali boshqaradi va natijada ma'rifatli shaxs, komil inson darajasiga yetadi.

Xulosa va takliflar. Jahon ma'naviyatining buyuk ustozlari Alisher Navoiy merosida ham komil inson masalasi muhim o'rin egallaydi. Uning axloqiy ideali Suqrot, Aflotun, Arastu,

Iskandar, Farhod, Shirin singari ijobiy qahramonlarning obrazlarida badiiy ifodalanadi. Buyuk shoir dostonlarida ular tarixiy shaxslar sifatida talqin etilmaydi, balki uning axloqiy dunyoqarashiga monand badiiy obrazlardir. Komil insonning real proobrazlari sifatida Navoiy Nizomiy, Naqshband, Jomiylar asarlarining maxsus boblarida tilga oladi. Uningcha, bu shaxslarda yuksak ilm va san'atkorlik axloqiy poklik va ma'naviy kamolot bilan uzviy ravishda bog'langandir.

Zero, Farhod komil insonga xos barcha sifatlarni o'zida mujassam qiladi. Farhod – rassom, mohir usta, bilimdon, dono mutafakkir, ayni vaqtda, u dovyurak jangchi hamdir. Unda hikmat va insoniylik uzviy ravishda ifodalangan. Farhodning ma'naviy qiyofasi uning amaliy harakatlari va ishlari bilan belgilanadi. Bu obrazda Navoiy gumanizmining o'ziga xos xususiyati shunda ifodalanadiki, bu gumanizm insonga nisbatan mavhum muhabbatda, insoniy his-tuyg'ulardagina namoyon bo'lmasdan, balki insonga yondashishning amaliy tamoyili sifatida yuzaga chiqadi. Bu inson huquqini himoya qiluvchi, uning baxt-saodati uchun kurashga da'vat etuvchi insonparvarlik ruhidir. Shunga ko'ra, Navoiyning ijobiy qahramonlari boshqalarning jabr-zulm tortishini, dard-hasratlarini ko'rar ekanlar, ularga nisbatan rahmdillik bilan cheklanmay, balki o'zlari ham yovuz kuchlarga, zolimlarga qarshi kurash olib boradilar. Buni biz Farhodning yovuz kuchlarga qarshi janglarida ko'rishimiz mumkin.

Alisher Navoiy asarlarida har tomonlama rivojlangan, barkamol insonning qiyofasi, uning komilligi, orifligini ifodalovchi mezonlar haqida ham qimmatli fikr-mulohazalar yuritilgan. Uningcha, barkamol insonning eng muhim fazilatlaridan biri – xalqparvarlik, vatanparvarlikdir. Yurt tashvishi bilan yashab, xalqqa ko'p foyda yetkazgan kishini chinakam xalqparvar odam deb hisoblaydi.

Ulug' mutafakkir barkamol insonni Xudo darajasiga ko'taradi. Chunki barkamol inson – mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, u hech kimdan qo'rqmaydi. Mustaqil fikr yuritish, aql-farosat bilan birga o'zida barcha insoniy fazilatlar, xislatlarni mujassamlashtirgan. Navoiyning fikricha, barkamol inson ma'naviy va ruhiy zulmga, kamsitishlarga chiday olmaydi. Zero, bunday kishi hamisha el-yurt tashvishi bilan yashaydi, odamlar dardini o'ziga dard deb biladi. Hamma narsadan inson degan zotning manfaatini ustun qo'yadi.

Xullas, Sharq mutafakkirlarining komil inson haqidagi qarashlari yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida ularning hayotga beparvolik bilan qaramaslik, ehtiyotkorlik, har bir harakatiga mas'uliyat hissini yuqotmaslik, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish va o'z vazifasini astoydil bajarishga undaydi.

Adabiyotlar:

1. Хайруллаев М.М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. – Т.: Ўзбекистон, 1971, 251-бет.
2. Аль-Фараби. Социально-этические трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1973, 166-бет.
3. Ибн Сино. Тиб қонуни. 1-том. – Т.: Фан, 1954, 305-бет.
4. Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. – Т.: “MERIYUS” XNMK, 2010, 348-бет.
5. О‘sha asarda, 57-bet.
6. О‘sha asarda, 130-bet.
7. О‘sha asarda, 160-bet.
8. Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадур. – Т.: Янги аср авлоди, 2003, 166-бет.
9. Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. – Т.: “MERIYUS” XNMK, 2010, 446-бет.
10. О‘sha asarda, 733-bet.